



UO'K: 83.428-09

ULUG'BEK HAMDAMNING "MUVOZANAT" VA GEORGIY PRYAXINNING "SAROB" ROMANLARIDA IRONIYANING O'RNI**THE PLACE OF IRONY IN THE NOVELS "BALANCE" BY ULUGBEK HAMDAM AND "SAROB" BY GEORGY PRYAKHIN****РОЛЬ ИРОНИИ В РОМАНАХ УЛУГБЕКА ХАМДАМА "РАВНОВЕСИЕ" И ГЕОРГИЯ ПРЯХИНА "МИРАЖ"**Yo'Ichiyev Qahhor Vahobovich¹ ¹Farg'ona davlat universiteti, adabiyotshunoslik kafedrasida dotsenti filologiya fanlari doktoriCharos Abdullayeva² ²Farg'ona davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi**Annotatsiya**

Maqolada zamonaviy o'zbek va rus romanlari nutqida yozuvchilarning borliqni ironik anglashi, ifodalashi masalasi haqida fikr yuritiladi. Keltirilgan ilmiy-nazariy qarashlarni isbotlash maqsadida o'zbek yozuvchisi Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" va rus yozuvchisi Georgiy Pryaxinning "Sarob" ("Miraj") romanlaridan olingan misollar qiyosiy asosda tahlilga tortilgan. Maqolaning kirish qismida qo'yilgan muammoning dolzarbligi va zarurati asoslangan. Adabiyotlar tahlili va metodologiyada bo'limida esa muammo bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlar Gegel, G.N.Pospelov, E.V.Xalizev kabi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari tadqiqotning aniq uslubiy ta'minotini belgilab berdi. Natija va tahlillar qismida esa ironiya haqidagi nazariy qarashlarning tadqiqot ob'ekti bilan aloqasi haqida ilmiy natijalar, ilgari surilgan ilmiy-nazariy g'oyalarni isbotlash uchun esa yozuvchilar romanidan olingan parchalar tahlilga tortilgan. Maqola oxirida izlanish natijasi sifatida keltirilgan xulosalarni sanab ko'rsatilgan, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati berilgan.

Abstract

In the speech of modern Uzbek and Russian novels, the article reflects on the question of the ironic understanding, expression of the existence of writers. In order to prove the scientific-theoretical views presented, examples from the novels "balance" by Uzbek writer Ulugbek Hamdam and "Sarob" ("Miraj") by Russian writer Georgy Pryakhin were subjected to analysis on a comparative basis. The relevance and necessity of the problem posed in the introduction to the article is based. And in the Department of literature analysis and methodology, scientists who conducted scientific research on the problem were Gegel, G.N.Pospelov, E.V. The scientific and theoretical views of such scientists as Khalizev determined the exact methodological support of the study. As part of the results and analysis, however, scientific results about the relationship of theoretical views on irony with the object of study, and to prove advanced scientific-theoretical ideas, fragments from the novel of writers were drawn into the analysis. At the end of the article, the conclusions presented as the result of the research are listed, a list of the literature used is given.

Аннотация

В статье рассматривается вопрос иронического восприятия, выражения писателями бытия в речи современных узбекских и русских романов. В целях доказательства представленных научно-теоретических взглядов к сравнительному анализу были привлечены примеры из романов узбекского писателя Улугбека хамдама "баланс" и русского писателя Георгия Пряхина "Мираж". Актуальность и необходимость поставленной проблемы обоснованы во введении к статье. На кафедре анализа литературы и методологии научные исследования по проблеме проводили ученые Гегель, г.Н.Поспелов, Е.В. Научно-теоретические взгляды таких ученых, как хализев, определили четкое методологическое обеспечение исследования. В разделе "выводы и анализ" приводятся научные выводы о связи теоретических взглядов на иронию с объектом исследования, а для доказательства выдвинутых научно-теоретических идей к анализу привлекаются отрывки из романов писателей. В конце статьи перечислены выводы, представленные в качестве результатов исследования, приведен список использованной литературы.

Kalit so'zlar: roman, ironiya, obraz, piching, kesatiq, badiiy nutq, muallif nutqi, dialogik nutq, badiiy tasviriy vosita va ifodalar, badiiy-estetik funksiya.

Key words: novel, irony, image, piching, cataclysmic, artistic speech, author's speech, dialogical speech, artistic pictorial medium and expressions, artistic-aesthetic function.

Ключевые слова: роман, Ирония, образ, подача, резкость, художественная речь, авторская речь, диалогическая речь, художественно-образные средства и выражения, художественно-эстетическая функция.

KIRISH

Ma'lumki, zamonaviy o'zbek va rus romanlarida yozuvchilarning olamni badiiy idrok qilishida ironik munosabat kuchaygan. Bu bir tomondan ijodkor badiiy-estetik idealining real voqelik yoki muallif yaratayotgan badiiy olam bilan muvofik kelmasligini anglatadi, ikkin tomondan yozuvchilarning jamiyatdagi evrilishlarga nisbatan pozitsiyaon munosabati sifatida ham baholanishi mumkin. Ammo har ikki holat ham zamonaviy o'zbek va rus romanlarining qiyosiy tahlili orqali ilmiy tahlilga tortilmagan. Aynan ana shu jihat maqola mavzusining dolzarbligini izohlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Aslida borliqni ironik anglash va ifodalash masalasi adabiyotshunoslikda uzoq yillardan beri mavjud an'ana hisoblanadi. "To'g'ri, shunday holatlar ham bo'ladi, prozada predmetlarning tashqi tomonini aniq va lo'nda aniqlash zarur bo'ladi. Ammo bu obrazlilik uchun emas, balki butunlay boshqa amaliy maqsad uchun xizmat qiladi. Umuman olganda, prozaik namoyish qonuniyatlari sifatida biz, bir tomondan, to'g'rilik, boshqa tomondan esa, lo'nda aniqlikni va ochiq tushunarlikni ilgari surishmish mumkin" [1, 388]. Nemis mutafakkiri Gegelning olamni nasriy asarda aks ettirishning lo'nda, aniq va tushunarli bo'lishi haqidagi qonuniyatlari yoniga, metaforiklik va obrazlilik ifoda doirasidan chiqmagan holda degan tushunchani ham kiritishni istar edik. Zero, badiiylikni ng bosh talabi aynan obrazlilik bo'lsa, metaforik ifoda ham badiiylik moduslaridan sanaladi. Ironik ifoda ham aynan ana shu ikkisiz mavjud bo'lmaydi.

Professor G.N.Pospelov "Ironiya va sarkazm mavjudlik va iedallar o'rtasidagi keskin nomutanosiblik natijeasida paydo bo'ladi. Biroq, ironiya o'zining g'oyaviy-umumlashmalik yo'naltirilganligini bilan, jamiyat ideallaridan o'sib chiqqavn bo'lishi muminligia qaramasdan, baribir sub'ektiv bo'lishi mumkin" [2, 223], degan fikrni ilgari suradi. Akademik V.E.Xalizev fikricha, Umuman olganda, olam va inson hayotiga yo'naltirilgan universal ironiyadan tashqari, odamlar hayoti va ularning tarixiy mavjudligini anglash va qabul qilishning konkret, lokal hamda bir vaqtning o'zida teran ahamiyatga ega ziddiyatlaridan tug'iladigan ironiya ham mavjud va u san'at va adabiyotda ancha samarali hisoblanadi" [5, 123]. Demak, ana ironiya ana shu shakli ma'lum bir davr va undagi kishilar reallikni turlicha anglashi va asl maqsadini ifodalishiga xizmat qiladi.

O'zbek adabiyotshunosi M.S.Heralieva ham ironiyaning muhim jihatini ko'rsatib o'tgan: "Voqelik va badiiy asardagi har qanday ijtimoiy-ma'naviy (ba'zan estetik) ideal yoki g'oyaviy-hissiy munosabat kinoyaning ob'ekti bo'la oladi. Zotan, kinoya satira va yumordagi kabi reallikni baholash bilangina cheklanmaydi, balki u reallikni baholash prinsiplarining o'zini ham taftishdan o'tkazadi" [6, 37].

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Ilmiy adabiyotlar tahili shuni ko'rsatadiki, ironiya va uning konkret vaziyatda yuzaga chiqishi muallif yoki asar bosh qahramoni ideali, badiiy-estetik konsepsiyasining real turmush sharoitga mos kelmasligi mahsuli bo'lishi mumkin. Bu esa individ va reallik ijtimoiy hayot o'rtasidagi farqning katta, chuqur yoki qisqaroq, sayozroq ekanligiga bog'lik bo'ladi. Chunki konkret shaxs va jamiyat o'rtasidagi g'oyaviy-estetik farqlanish bo'lishi tabiiy jarayon hisoblanadi. Bundan tashqari, ironiya va uning reallikni baholash tamoyillarir ham ironik anglash jarayonida tahrir qilinishi mumkindligi ironiyaneing doimiy ravishda o'zgarib, takomillishib borishi aynan sub'ekt bog'liqligini ko'rsatadi.

Roman va undagi voqelikni badiiy idrok qilish, ifodalash "murakkab janrning o'zak xususiyati bo'lgan ijtimoiy-siyosiy voqelikni tanqid qilish, va unga munosib baho bera olishning uddasida chiqish, bunda asar tili piching, kesatiq, va turli hissiy-ekspressiv so'zlarni kiritilgani" [7,73] roman tiliga ifoda beradi. Ammo bu erda ironiya va ideal o'rtasidagi farqlanish mahsuli bo'lib, u jamiyat taraqqiyotida turg'unlik yoki keskin o'zgarishlar yuzaga chiqqan paytlarda yaqqolroq namoyon bo'ladi. Xususan, XX asr oxirgi o'n yilida Evroosiyoda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqelik keyinchalik kishilik jamiyati taraqqiyotini tubda o'zgartirib yubordi. Bu esa o'z navbatida badiiy adabiyotda ham aks etdi. Giorgiy Pryaxinning «Sarob» romanida etakchi qahramonlardan biri Vitkaning portretini berayotib ham unga ba'zi ironik ifodalarni singdirib yuboradi. Buni quyidagi adabiy parchada kuzatish mumkin:

ILMIY AXBOROT

“Vitkaning katta, o‘tkir, ammo qovoqlari bilan yarmi yopilgan nigohi (shuning uchun ular porlaydi, yarim oyga o‘xshaydi) bilan boqish kifoya va hammasi senga ayon bo‘ladi: yuzga oyoq qo‘yilmaydi. Olg‘a qadam bos, olovli komsomol...” [3, 4] Ma‘lumki, romanlarda voqea-hodisa, vaziyat, personajlar holati, xarakteri, qiyofasi bilan bog‘liq tasvirlarda ironik munosabat ko‘pincha qorishiq holat ifodalagadi. Keltirilgan parchada ham Vitkaning qiyofasi tasvirida ironik munosabat mavjud. Bu ayniqsa, “yuzga oyoq qo‘yilmaydi” iborasida passivroq ko‘rinadi, ammo keyingi gap (“Olg‘a qadam bos, olovli komsomol”)da jamiyatdagi mavjud vaziyatga roviyning kesatliq munosabati bo‘rtib ko‘rinadi. SHu erda ironik ifoda roman kompozitsiyasiga, xususan badiiy nutq tuzilishiga ta‘siri seziladi.

“Ha, jinglak, Vitkada, kutilganidek, ko‘zi qora emas, balki kulrang. Vitka ko‘pdan beri bosiq odam. Kavkazliklarnikiga o‘xshash burni Qo‘rqitadigan kavkazliklarnikiga o‘xshash burni – pichoqning bo‘sh qinidekdek, xolos.

Vitkaning familiyasi ruscha – Kudrin (jingalakdan olinmaganmikan?) Vitkaning qalbi ham rus? nozik, kechirimli, qindan o‘ychan chiqarilgan – nima uchun?” [3, 3]. Ushbu parchadagi burun – qin semantic strukturasi ifodasida pershonajga nisbatan roviyning kinoyaviy, kesatliq munosabati mavjud. Bu yerda ironiy ikki xil ma‘noda kelgan. Birincisi, roviyning bayon qilinaotgan voqelikka, xususan, tasvirdagi personajga nisbatan munosabatini anglatsa, ikkinchisi, esa tasvirlangan obyektning asarga nisbatan pafosini ham bildiradi. Bundan tashqari, Vitka familiyasi ham ruscha ekanligini ta‘kidlanishida ham piching seziladi. Chunki asar rus tilida, qahramon ismi ham ruscha, demak familiyasi ham ruslarga xos bo‘kishi kerak. Lekin roviy bu yuerda ham nimagadir shama qilgendetk taassurot qoldiradi.

G.Pryaxin bosh qahramon tilidan voqelikni bayon qilar ekan, o‘tgan asrning 1964 yillaridagi bir voqeni keltiradi: “Faqat kichik bog‘ga qarovchilar – shaxsiy, xususiy. Kapitalizm tashvishlari. Ana o‘sha instinktning kasallik to‘plangan joyi bo‘lib qoldi. Bu hamda men o‘zim ham rayon gazetasida ba‘zan xabar berganman. Har kuni so‘lishini va qurishini istaganman. Ammo boqcha egalari nima uchundir zaiflashini, kuchdan qolishni sira istashmas edi. Saksovul kabi yashovchan edi! Bir yarim metrli maydonga yaxshigina dendroriyadagidek joylashgan Bizning bog‘imizda hamma nasra – bodringlar, pomidorlar, piyoz, nafaqat dahshatli darajada yashovchan instinkt, balki er ham shundaymikan?” [3, 4]

Mazkur parchada sobiy tuzum paytidagi turmush tarzi bayon yilinar ekan, roviy shahar o‘rtasidagi hovlilar orasidagi kichik erda dehqonchilik qilayotgan odamlar faoliyatiga roviyning ironik munosabatini aks ettirgan. Aslida xususiy mulk, shaxsiy tomonqfa bo‘lishi ayb sanalgan davrda roviyning bodring, pomidor, piyoz ekan va undan yaxshi hosil olgan dehqonga bo‘lgan munosabati kulgili edi. Chunki mehnat qilib o‘z dasturxoniga o‘zi mahsulot etishtirgan odamga nisbatan roviy kulgili vaziyatga tushib qolgan edi. YOZuvchining real borliqqa bunday munosabat uning o‘zi roman ta‘kidlaganidek “mo‘jizasiz – mo‘jiza” edi.

Aslida, birinchi galda, ana shu tarzidagi rivoya muallifning real voqelikka bo‘lgan munosabatini, shaxsiy pozitsiyasi borligini bildiradi. Ikkinchi tomondan esa, davar talabi doirasida o‘zuvchi voqelikni sub‘ektiv roviy tilidan bayon qilib, o‘zi javobgarlikdan qutulib qoladi. Lekin ana shu ifoda romanning umumiy kompozitsiyasiga singib, uni jonli, haqiqiy mazmunini boyitgan. Biz Ulug‘bek Hamdam ham romanida xuddi shunga o‘xshash usul yordamida umumiy rivoya tarziga ironiklik, voqeaga yumoristik yondashuv joylaganini ko‘rdik. Xususan, sumalak pishirish marosimida katta hovliga to‘plangan odamlar va erkaklar o‘tirgan uyda Muxtor aytib bergan latifaya ham roman kompozitsiyadagi ironik munosabatni ochishga xizmat qilgan:

“Hammaning qulog‘i Muxtorning og‘ziga mixlangan edi.

– Abdurahmon aka piyoz ekkandan ikki-uch kun keyin dam olish uchun sanatoriya jo‘nab ketibdi. Xullas, bir oy obdan hordiq chiqarib, ikki yuzi qip-qizil bo‘lib kuchga to‘libdi. Nihoyat, qaytib kelib qarasa, piyoz o‘rnida quloqlarini ikki yonga yozib so‘vzi turganmish. CHoyxonaga kela solib, choy ho‘plab o‘tirgan odamlarga o‘z mo‘jizasini hayratlanib gapirib tursa, elkasiga hasa kelib tushibdi. – Ho‘v, padarla‘nat, haftafahm! Qachon piyozning urug‘idan savzi unibdi? Mano‘vi kallangni ishlatsang nima qiladi? Sen yo‘g‘ingda men ola chiqqan piyozingni buzib, o‘rniga so‘vzi ekanman! – deb saksonni urgan Abdug‘afur buva pahmoq soqolli o‘g‘lini uyiga qarab quvib solibdi-da...” [4, 66]

Muxtor obrazi nomidan aytilgan latifa qishloqdoshlar hayotini kulgiga to'ldirish, dard-g'am, tashvishlarni aritishga yordam berishi umumiy tasvirdan anglanib turibdi. Ammo, ariq bo'yiqa biroz o'tirib, do'sti Sodiq aytgan alamli gaplardan ko'ziga yosh kelgan va ruham ezilap boshlagan YUusufning ruhiyatiga engillik olib kiradi. Ikkinchi tomondan latifa va undagi ba'zi odamlarining o'zlarining kaltabinliklari natijasida kulgili vaziyatga tushishi, buni qishloqdoshlar qayta va qayta aytib yurishlari ostida didaktik ahamiyat borligi roman mazmunidagi ironik ifoda salmog'ini kuchaytirgan. To'g'ri, Ulug'bek Hamdam aynan latifa janridan foydalanib roman kompozitsiyasiga ironik tus berishga intilgan. Lekin "Sarob" romanida ironik ifodaning roviy nutqida berilishi romanning rivoyaviy kompozitsiyasiga o'ziga xos yo'nalish bag'ishlagan.

XULOSA

1. Zamonaviy romanlarda ironik idrok yoki ifoda asar kompozitsiyadagi uslubi rangbaranglikni ta'minlaydi. Bundan tashqari, yozuvchilarning real voqelikka bo'lgan shaxsiy pozitsiya ham aks ettadi. Buni Georgiy Pryaxinning "Sarob" nomli romanidan olingan tahlil misolida kuztish mumkin.

2. Ulug'bek Hamdam romanida ironiya asosan asar kompozitsiyasiga personaj nutqi orqali kiritilgan latifa janri orqali ifodalangan. Natijada YUusuf obrazining dramatik vaziyatdan keyingi tasvirida hayotiy kulgi yuzaga chiqqan. Bu esa roman kompozitsiyasiga turli-tumanlik bag'ishlagan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Georg Vilgelm Fridrix Gegel. Estetika. V 4-x tomax. Tom 3-y. – Moskva: Isskusvtvo, 1971. – 623 s.
2. Pospelov G.N. Teoriya literatury. – Moskva: vysshaya shkola, 1978. – 352 s.
3. Pryaxin G.V. Miraj. Roman. <http://proza.ru/avtor/xudizdatyandex>
4. Ulug'bek Hamdam. Vatan haqida qo'shiq.romanlar va hikoyalar. – Toshkent: Akademnashr, 2014. – 544 b.
5. Xalizev V.E. Teoriya literatury. – Moskva: Akademiya, 2013 – 432 s.
6. SHeralieva M. Hozirgi o'zbek nasrida kinoya. – toshkent: Akademnashr, 2016. – 224 b.
7. Yo'lchiyev Q.V. Abdulla Qodiriyning ba'zi kichik asarlarida janr muammosi / Ta'lim va innovatsiyon tadqiqotlar (2023 yil №6) – B.71-73.